

YOSHLARDA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY IDROK ETISH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Botir Boltabayevich Baymetov,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrası professori

Annotatsiya:

Mazkur maqolada yoshlarda badiiy obrazni estetik idrok etish, san’at asari mohiyatini anglash, rassom tomonidan yaratilgan badiiy obrazni tavsiflash, uning ifodalanishini farqlash, shuningdek, san’at asarini shaxsiy hayotiy tajribasi bilan qiyoslash qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Kalit soʻzlar: tasviriy san’at, badiiy obraz, estetik tarbiya, san’at asari, ma’naviy-ahloqiy tarbiya, kompozitsiya, rangtasvir, syujet.

Soʻnggi paytlarda pedagogikada har tomonlama rivojlangan, ruhan boy, faol, zamonaviy dunyoda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga hamisha qodir, barkamol shaxsni tarbiyalash usuli, voqelikka munosabatni shakllantirishning eng muhim vositasi, ma’rifiy tarbiya usuli sifatida ma’naviy-ahloqiy muammolarga e’tibor ortib bormoqda. Estetik tarbiya tizimi esa o‘rab turgan voqelik hamda o‘z atrofidagi go‘zallikni his qilishga o‘rgatadi. Tizimli ta’limning birinchi bosqichida ma’naviy-ahloqiy, badiiy va estetik tarbiya olgan bola keyinchalik musiqachi, rassom, adabiyotshunos bo‘lib yetishmasa ham, uning tafakkurida go‘zallik olamiga nisbatan muhabbat, mehr, ong evriluvchanligi, ahloqiy hamda badiiy qadriyatlarga ehtirom saqlanib qoladi.

San’at — inson shaxsini shakllantiradigan, uning atrof muhit to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytiradigan eng muhim omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan olganda san’at asarlarini idrok etish ko‘nikmasini rivojlantirish badiiy tarbiyaning muhim maqsadi hisoblanadi.

Badiiy obrazni estetik kategoriya sifatida to‘laqonli o‘zlashtirish san’at oldida turgan vazifadir. Estetik tuyg‘u, ya’ni san’at asari mohiyatini anglash, rassom tomonidan muayyan obrazni tavsiflash uchun foydalanilgan ifodalash vositalarini farqlash, shuningdek, san’at asarini shaxsiy hayotiy tajribasi bilan qiyoslash qobiliyatini shakllantirishdir. Agar bolaga ko‘z oldidagi o‘rmon, daryo, ko‘chani ta’riflash taklif qilinsa, u mayda-chuyda detallarga o‘ralashib, ob’ektlarning eng muhim, umumiy jihatlarini ajratib berishni uddalay olmaydi. Badiiy asarlar esa uning tom ma’nodagi

“ko‘rish” ko‘nikmasini tarbiyalashda yordam beradi. Maktab o‘quvchilari bilan suhbatlar, muayyan tasviriy san‘at asarlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda ularni a asarlarning mazmun-mohiyatini his qilish va ko‘rishni o‘rgatish pedagogning asosiy vazifasidir. O‘quvchilar tasviriy san‘at asari, undagi obraz hamda g‘oyalar mohiyatini qanchalar chuqur anglab yetishsa, shaxsiy fikrlari va hissiyotlari shunchalar boy bo‘ladi.

San‘atning faqat o‘ziga xos tili mavjud va uni san‘at asarlarini idrok etishdan boshlab o‘rganish lozim. Rangtasvir, musiqa, adabiyot namunasini idrok etish — bu o‘quvchidan pedagog rahbarligi ostida muayyan ko‘lamda mehnat qilishni talab etadigan jarayondir. Ijodkorlik va jarayonning shunday rivojlanishidan manfaatdor o‘qituvchi o‘quvchilarni estetik tarbiyalash uchun turli imkoniyatlarni qidiradi va hech qachon tasviriy san‘at hamda musiqa darslari uchun belgilangan doiralar bilan chegaralanib qolmaydi. Shunday qilib, ijodkorlik bilan bog‘liq darslarda san‘at asarlarini idrok etish qobiliyatini maktab o‘quvchilarini estetik tarbiyalash vositasi sifatida rivojlantirish usullari va yo‘llari bizning ishlanmalarimiz asosini tashkil qildi. San‘at asarlarini idrok etishning asosiy tushunchalari, bosqichlari va darajalari haqida gap borganda, idrok — bu atrof muhit to‘g‘risida axborot olishga yo‘naltirilgan faol jarayon bo‘lib, u idrok etilayotgan ob‘ektni o‘rganishga qaratilgan real harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Estetik idrok — bu insonning umumiy go‘zallik olami bilan tanishish jarayoni sifatida insoniy munosabatlar nafosati, tabiatning betakror nazokati yoki noyob san‘at asari jozibasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Badiiy idrok (xilma-xil san‘at asarlarini idrok etish) — estetik idrokning alohida turi bo‘lib, san‘atning shartlilik tabiati va san‘at asari bilan muloqotdan ijobiy hissiyotlar olishga ehtiyoj — estetik zavq bilan kechadi.

Badiiy idrok — bu tomoshabin va asar muallifining bir-biriga o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishi, muloqoti, xatto, baxs-munozarasi bilan ifodalanadigan alohida jarayondir.

Yoshlar bilan san‘atning har qanday turi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, avvalo, idrokdan boshlanadi. San‘at asari maktab o‘quvchisi tomonidan bevosita qabul qilingandan keyin, g‘oyaviy-badiiy mohiyati anglab yetilgandan so‘nggina o‘zining tarbiyaviy va ta‘limiy maqsadlariga erishadi. Shuning uchun ham aynan idrok jarayoniga alohida e‘tibor qaratish lozim. Estetik idrokning oliy maqsadi — inson shaxsini shakllantirishdir.

Badiiy asarni idrok etish sifati quyidagilarga bog‘liq:

- uning murakkablik, ahamiyatlilik, mukammallik darajasi;



- idrok etish shart-sharoitlari;
- o'quvchi hususiyatlari (uning idrok etish madaniyati, ahloqiy tamoyillari, estetik tajribasi, ma'lumot darajasi, idrok qobiliyatining psixologik turi, ruhiy dunyoqarashi, aqidalari).

Asarni badiiy idrok etish jarayoni uch bosqichdan o'tadi:

1. kommunikatsiya oldi bosqichi, ya'ni tomoshabinning san'at asari bilan tanishish arafasidagi bosqich;
2. kommunikatsiya bosqichi, ya'ni tomoshabinning san'at asari bilan aloqasini (muloqotini) o'z ichiga oladigan bosqich;
3. kommunikatsiyadan keyingi bosqich, ya'ni aloqa nihoyasiga yetgan, lekin san'at asarining jonli ta'siri saqlanib qoladigan bosqich bo'lib, uning darajasiga tayanib insonning emotsional holatiga baho berish mumkin.

Badiiy idrokning shakllanishi va rivojlanishi insonning ma'naviy yuksalishi jarayonida bir qator bosqichlardan o'tadi va u quyidagilarda ifodalanadi:

- san'at tilini o'zlashtirish;
- maxsus bilimlar olish;
- badiiy asarlar bilan muloqot qilish orqali muayyan tajriba to'plash, badiiy didni shakllantirish;
- badiiy bilishga qiziqish uyg'onishi.

San'at asari bilan aloqada bo'lish bolalarda turli hissiyotlarni tug'diradi va ularni ikki guruhga taqsimlash mumkin:

1. San'at asari bilan aloqada bo'lish (idrok etish):

- yuzaki ko'zdan kechirish;
- lahzalik zavq;
- lazzatlanish;
- barqaror taassurotlar olish uchun qiyoslash.

2. Ta'sirlanish:

- asar obraziga kirish;
- hissiyotlar "parvozi";
- asar ta'siriga tushish (badiiy obrazga hamdard bo'lish, uning hayoti bilan yashash).

Badiiy asarni idrok etish zahirida quyidagi tarkibiy qismlar (bosqichlar) yotadi:

- birlamchi idrok (asarni tomoshabin sifatida ko'z bilan qamrab olish, tafakkur qilish va ko'zdan kechirish);
- ko'rganlaridan muayyan hissiyotlarni boshdan kechirish;



- syujetni tahlil qilish va asar to'g'risida birlamchi tasavvurga kelish;
- asar muallifi foydalangan tasviriy vositalarni tahlil etish;
- asarning ramzlar turkumini idrok etish va tahlil qilish.
- asarda ko'rganlarini shaxsiy tajriba, xotiralari bilan taqqoslash;
- asar to'g'risida shaxsiy tassurotga ega bo'lish;
- xususiy fikrini ifodalash uchun muayyan xulosalarga kelish.

San'at asarlarini idrok etishni rivojlantirish usullari va yo'llari

O'qitish usuli — bu o'qituvchi va o'quvchilarning muayyan tartibga solingan, o'zaro aloqador faoliyati, ta'lim-tarbiya va rivojlanish bo'yicha belgilangan vazifalarni tahsil jarayonida hal qilishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar to'plamidan iborat. Ular og'zaki, ko'rgazmali va amaliy usullarga bo'linadi. Musiqiy hamrohlik usuli alohida o'rin tutadi.

Og'zaki ta'lim usullari — o'qitishning eng keng tarqalgan yo'llari guruhi bo'lib, ulardan maktabda o'tiladigan barcha fanlar, shuningdek, ta'limning hamma bosqichlari hamda shakllarida foydalaniladi. Og'zaki usullar ta'lim tizimida yetakchi o'rinda turadi. Qachonlardir bu usullar bilim berishning deyarli yagona yo'li hisoblangan. Hozirgi paytda ular "nafaol", eskirgan sanaladi. Mazkur guruhga kiruvchi usullarni baholashga xolis yondashish lozim.

Og'zaki usullar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni yetkazish, o'quvchilar oldiga muayyan muammolarni qo'yish va ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga imkon beradi. O'qituvchi so'z yordamida bolalar ongida insoniyat tarixi, bugungi kuni va kelajagining yorqin manzaralarini jonlantirishi mumkin. So'z o'quvchilar tasavvuri, xotirasi, his-tuyg'ularini faollashtiradi.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanib ta'lim berish usullari — bu o'quv materialini o'zlashtirish ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali va texnik vositalarga sezilarli darajada bog'liq usullardir. Ko'rgazmali qurollar bilan amalga oshiriladigan ta'lim usullari og'zaki va amaliy ta'lim yo'llari bilan uyg'unlikda olib boriladi. Ular o'quvchilarni hodisalar, jarayonlar, ob'ektlar bilan yuzma-yuz, natural holatda yoki turli rasmlar, reproduksiyalar, sxemalar va boshqalar yordamida ramziy tasvirda tanishtirishga mo'ljallangan. Bu maqsadlar uchun zamonaviy maktablarda ekranli texnik vositalardan keng foydalaniladi. Quyidalar shunday usullar sirasiga kiradi:

- virtual ekskursiyalar;
- mohir rassomlarning mavzuga yaqin asarlarini birgalikda (individual) o'rganish;



- videotaqdimotlar, yetuk rassomlarning mahorat darslarini namoyish etuvchi ijodiy videoroliklar tomosha qilish;
- o'quvchilarning ijodiy ishlarining prosmotr va ko'rgazmalari;
- o'zaro ijodiy ishlarni taqqoslash
- ko'rgazmalar tashkil qilish.

Musiqiy hamrohlik usuli — e'tiborni beixtiyor ushlab turadigan ijodiy emotsional fon yaratadi, darsda pozitiv muhit shakllantiradi.

Tasviriy san'at darslarida amaliy ishlashning turli usullarini o'zaro uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, asosiy urg'uni o'quvchilar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib u yoki bu usulga qaratish lozim. Bundan tashqari san'at asarlarini idrok etishning darslarda foydalaniladigan usullari hamda yo'llarini ularning qo'llanishiga qarab ajratish mumkin.

Usullar va yo'llarning foydalanish turiga ko'ra taqsimlanishi

- "passiv" va "faol" idrok;
- asarlarni o'zaro qiyoslash;
- asarni his qilish;
- detallarga e'tibor qaratish;
- adekvat reaksiyalar qo'zg'atish yoki hissiyotlarni "jonlantirish";
- "g'oya-hissiyotlar", "g'oya-munosabatlar" muhokamasi;
- asarlarni idrok etish paytida pedagogning ongli provokatsiyaga borishi;
- o'qituvchining idrok etilayotgan asarga nisbatan emotsional munosabati;
- yangicha vaziyatda, o'zgacha badiiy nuqtai nazardan takroran idrok etish;
- asarni idrok etishdan "ta'sirlanish";
- o'quvchilar diqqatini faollashtirish uchun "epizodik qiziqish" usuli, xususan, biron san'at asarining yaralishi, mashhur rassomlar, musiqa ustalari va boshqalarning hayoti va faoliyati bilan bog'liq qiziqarli faktlardan foydalanish;

Muammoli usullar:

- asarning musiqiy muqobilini topish (badiiy asarni musiqiy kompozitsiyaga qiyoslash);
- asarning grafik muqobilini topish (asar obrazini taklif qilingan rang gammalari yoki grafik kompozitsion sxemalar bilan qiyoslash);
- "asarni ko'ramiz va tinglaymiz" (o'quvchilarga namoyish qilinayotgan asarni fikran "tinglash" va "eshitgan" tovushlarini asarning emotsional qatoridan kelib chiqib ta'riflash taklif etiladi);



• “bosh qahramon nomidan monolog yoki dialog tuzish” (o‘zini xayolan asar qahramoni sifatida tasavvur qilish, uning nimalar haqida o‘ylagani to‘g‘risida fikr yuritish, tasvirlangan hodisalarda xayolan ishtirok etish);

• asarning grafik tasviri talqini (rassom tasvirlagan qish peyzaji asosida yoz peyzaji chizish);

• badiiy asarni yanada to‘ldirish (o‘quvchilarga asarning tarkibiy qismlaridan birini o‘z talqinida, masalan, tabiat holatidan (kunduzi, oqshom, momaqaldiroq va h.) kelib chiqib “o‘z osmonini” chizish taklif etiladi).

Badiiy asarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantirish uchun darslarda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Rolli o‘yinlar — “Muzeyga ekskursiya”, “Vernisaj”, “Tomoshabin bilan suhbat” (o‘yin davomida o‘quvchilar asarga nisbatan shaxsiy munosabatini izhor qilish bilan cheklanib qolmay, maxsus atamalar va tushunchalardan foydalanib to‘g‘ri savol tuzishni o‘rganishadi), “badiiy asarga singish” (o‘zingizni san‘at asari qahramoni o‘rnida tasavvur qilib ko‘ring), “Eng yaxshi ekskursovod” (o‘quvchilar asar syujeti, motivi, kompozitsiyasi, uning tarkibiy qismlari, ifodalash vositalari to‘g‘risida hikoya qilib berishadi).

Bunday o‘yinlar ko‘ruv xotirasi, nutq, mantiqiy tafakkur, emotsional va obrazli ifodalash qobiliyati, badiiy asarlarni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi, bola fantaziyasini kengaytiradi hamda ijodiy xususiyatga ega.

Darslarda qo‘llaniladigan o‘yinlar bir yoki bir necha vazifalarni hal qiladi:

- diqqatni rivojlantiradi;
- kuzatuvchanlikni tarbiyalaydi;
- his-tuyg‘ularga ta’sir ko‘rsatadi;
- bolaning shaxsiy imkoniyatlarini kashf etadi.

2. Asar asosida kichik insho yoki tavsifnoma yozish, asarni tahlil qilish yoki unga taqriz bitish (bu ish uyga vazifa sifatida ham berilishi mumkin). Bolalar san‘at asarini tavsifini tayyorlashni o‘rganishlari uchun dastlabki bosqichlarda ularni muayyan reja bilan ta’minlash zarur. Bunday turdagi mashg‘ulotlar muntazam o‘tkazilsa, bolalar tez orada ularga ko‘nikishadi.

Rasm darslarida badiiy asarlarni tizimli ko‘rib borish juda muhim jihatdir. Zamonaviy ta’lim dasturlari bu ishni har bir darsda amalga oshirishni tavsiya etadi. Men bu fikrga to‘liq qo‘shilaman, chunki san‘at asarlariga muntazam murojaat qilish, ularni yaratishda foydalanilgan vosita va usullarni tahlil qilish, o‘rganish kuzatuvchanlik hamda badiiy asarlarni “o‘qish” ko‘nikmasini rivojlantiradi,

shaxsning badiiy-ijodiy iqtidorini takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa, o'z navbatida, bolalar chizgan rasmlarga yorqinlik beradi.

Asarlarni idrok etish motivatsiyasini uyg'otish uchun quyidagi yo'llardan foydalaniladi:

- o'quv materialini jonli va ishonarli tarzda taqdim qilish;
- ta'lim berilayotgan fan, uning mazmun-mohiyati va dolzarbligiga nisbatan shaxsiy qiziqishini har tomonlama ko'rsatish;
- o'quv vazifalari rang-barangligini imkon qadar oshirish;
- har bir bolaning o'quv va ijodiy muvaffaqiyatlarini ta'kidlash;
- har bir o'quvchiga o'z fikrini bildirishga imkon berish;
- javoblardan ijobiy jihatlar topish;
- har bir o'quvchiga yutuqqa erishishi uchun shart-sharoit yaratish;
- qiziqarli tarixiy faktlardan foydalanish;
- hissiyotlarga boy materiallarni oqilona tanlash.

Idrok jarayonida **musiqaning roli** benihoya katta. U e'tiborni beixtiyor ushlab turadigan, bolaga vazifalarni bajarishda ishtirok etish yoki dam olish imkonini beradigan, individual tarzda yoki guruh tarkibida bajarilayotgan muayyan mashqqa nisbatan qiziqishini so'ndirmaydigan ijobiy, emotsional muhit fonini beradi. To'g'ri tanlangan musiqiy hamrohlik tasvir, syujet mazmun-mohiyatini yanada chuqur tushunishga imkon beradi. Asarlarni idrok etishda o'qituvchi faoliyatida ham, o'quvchilarda ham me'yordan tashqariga chiqish holatlari uchrab turadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, bolalar qobiliyatini san'at asarlarini idrok etish orqali rivojlantirish ustida ish olib borish jarayonida o'quvchilarda quyidagi natijalar kuzatiladi:

1. O'quvchilarning iste'dodi, yashirin qobiliyatlarini kashf etish uchun optimal sharoitlar yaratiladi.
2. Har bir o'quvchi kasbiy sifatleri va qiziqishlarining rivojlanishi kuzatiladi.
3. Sotsium bilan o'zaro munosabatlar shakllanadi.
4. Bilish jarayonlari taraqqiyoti ta'lim ishtirokchilarining saboq olish borasidagi talablarini yanada to'liq qoniqtirishga imkon beradi.
5. Badiiy did kurtaklari shakllanadi.
6. Asarlarni idrok etish jarayonida kechadigan mashg'ulotlar o'quvchilar so'z boyligini oshiradi, o'z fikrini shakllantirish va isbotlash qobiliyatini rivojlantiradi, nutq obrazliligini boyitadi, turli epiteta, qiyoslashlardan foydalanishni o'rgatadi; muloqot qilish, savollarni tinglash va tushunishdan saboq beradi.

Adabiyotlar:

1. В.В.Байметов, Qalamtasvir. Pedagogika yoʻnalishidagi kasb hunar kollejlari uchun oʻquv qoʻllanma. T.: „Ilm-ziyo“ 2014. 216 b.
2. Выготский, Л.С. Педагогическая психология. М.: Педагогика, 2007. 197 с.
3. Яшухин А.П. Живопись. Учебное пособие. Просвещение 1987. 2. Алексеев С.С. О колорите. М., 2005. 3. Вузин В.С. Психология. Учебное пособие. М., 2006. 210 4. Беда Г.В. Основы изобразительной грамоты. Рисунок, живопись, композиция: Учеб. пособие. М., 1986.
4. В.С.Кузин В.С. Психология. Учебное пособие. М., 2006. 210 4. Беда Г.В. Основы изобразительной грамоты. Рисунок, живопись, композиция: Учеб. пособие. М., 1986.
5. Беда Г.В. Основы изобразительной грамоты. Рисунок, живопись, композиция: Учеб. пособие. М., 1986.

